



## XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 18-oktabr

VI-89-106-11-161-K/24

O'zbekiston tumani

### **O'zbekiston tuman adliya bo'limi boshlig'i Sh.Tillaevning tumandagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati 2024-yil 3-choragi bo'yicha hisoboti**

O'zbekiston tuman adliya bo'limi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-son Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizom, shuningdek, adliya vaziri va Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining buyruqlari asosida olib boradi.

Bo'lim tomonidan 2024-yil 9-oyi davomida belgilangan faoliyatning ustuvor yo'nalishlari ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston tuman adliya bo'limi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha quyidagilarni ma'lum qiladi.

**Huquqni qo'llash amaliyotini o'rghanish va tahlil qilish, uning barqarorligi va bir xillagini ta'minlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish sohasida:** Davlat idoralari va tashkilotlarida 19 ta o'rghanishlar, 24 ta monitoringlar o'tkazilib, jami 746 ta qonun buzilish holatlari aniqlandi. Aniqlangan qonun buzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan davlat idoralari tashkilotlariga 34 ta taqdimnoma kiritilib, uning natijasida noqonuniy ravishda qabul qilingan 28 ta hujjat bekor qilinib, 25 ta mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) to'xtatildi, 462 379 000 so'm pul mablag'i undirilishiga erishildi, 7 nafar shaxs intizomiy javobgarlikka, 9 nafar mansabdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi. Qonun hujjatlarini buzilishini oldini olish yuzasidan

davlat idoralari va tashkilotlariga 305 ta ogohnomalar, qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan 9 ta takliflar kiritildi.

**Qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tumanlar (tumanlar) tuzilmalaridagi ijrochilarga etkazish sohasida:** Normativ-huquqiy hujjatlar, axborot-tahliliy materiallar tumandagi barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda idoralarga elektron shaklda yuborilishi ta'minlanmoqda.

Qonun hujjatlarini etkazish hamda «respublika-viloyat-tuman (shahar)-mahalla» printsipi bo'yicha huquqiy targ'ibot ishlarini to'g'ri tashkil etish maqsadida turli soha vakillari bilan hamkorlikda tuman adliya bo'limi huzurida targ'ibot guruhlari shakllantirilgan, mazkur faoliyat internet tarmoqlari (missenjerlari) orqali ham amalga oshirilib kelinmoqda.

Huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanishni, shu jumladan veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirishni ta'minlash bo'yicha "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida, «Telegram» messenjerida «Huquqiy ta'limga» kanallari tashkil etilgan.

**Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish sohasida:** Jismoniy va yuridik shaxslardan jami 302 ta murojaat kelib tushdi, shundan 246 ta murojaat hal etildi, 15 ta murojaat xal qilishlik uchun tegishliligiga ko'ra boshqa tashkilotga yuborildi, 1 ta murojaat ko'rmasdan qoldirildi. Ko'rib chiqilgan 246 ta murojaatdan 177 tasi qanoatlantirildi, 69 tasiga huquqiy tushuntirish berildi.

Olib borilgan o'rganishlar, monitoringlar va murojaatlar natijasida O'zbekiston tuman adliya bo'limi tomonidan sudlarga fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab 36 ta da'vo arizalari kiritildi.

**Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida:** jami 51 675 ta murojaat kelib tushdi, shundan 8 976 ta murojaatlar yagona interktav davlat xizmatlari portali orqali, 2 222ta tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yhatdan o'tkazish to'g'risidagi murojaatlar qabul qilinib, yil davomida 393 ta yuridik shaxslarga, 1829 ta yakka tartibdagi tadbirkorlarni (shundan, yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon ho'jaligi 748 ta, hunarmandchilik yo'nalishida 65 ta) ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yhatdan o'tkazilishi ta'minlandi. Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida markazga 42 699 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 34 231 tasi jismoniy shaxslardan, 8 468 tasi yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tashkil etadi. Mazkur murojaatlarning 40 386 tasi belgilangan muddatda ijobiy hal etilib, 2 313 ta murojaat bo'yicha so'rovlar reglament talablari asosida ko'rib chiqish uchun vakolatli tashkilotlarga yetkazilishi ta'minlandi.

**Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish:** 2024-yilning 3-choragi (yarim yillik) davomida 6605 ta hujjat qayd etilgan bo'lib, shundan 3919 tasi tug'ilishni qayd etish

to'g'risidagi (o'g'il bolalar 2014, qiz bolalar 1905 nafar), 1060 tasi nikohni qayd etish to'g'risidagi, 239 tasi nikohdan ajralishni qayd etish to'g'risidagi (tuman FHDYO bo'limidagi ixtiyoriy ajrim 92 ta, sud qarori asosida 147 ta), 863 tasi o'limni qayd etish to'g'risidagi, 463 tasi dalolatnama yozuviga o'zgartirish, qo'shimchalar va tuzatish kiritish, 61 tasi familiya, ism, ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi rasmiylashtirilgan hujjatlarni tashkil etadi.

**Yuridik xizmat ko'rsatish sohasida:** tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi tomonidan 2024-yil 3-choragi davomida jami 17481 ta yuridik tusdagi hujjatlar huquqiy ekspertizadan o'tkazildi, shundan 16 479 ta hujjat yuzasidan huquqiy ekspertiza natiasi bo'yicha ijobjiy xulosa berildi, 56 ta hujjat qonunchilikka zidligi sababli qonunchilikka muvofiq emasligi to'g'risida yuridik xulosa berildi. Shuningdek, tashkilotlarga nizolarni sudgacha hal etish vositasi sifatida jami 12 333 000 so'mlik talabnomalar berilib, shundan barchasi qanoatlantirilishiga erishildi. Markaz xodimlari tomonidan yuridik xizmat ko'rsatilishi belgilangan tashkilotlarda jami 112 ta turli xildagi targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarini inobatga olib, hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari O'zbekiston tuman Kengashi

## **Q A R O R      Q I L A D I:**

**1.** O'zbekiston tuman adliya bo'limi boshlig'i Sh.Tillayevning norma ijodkorligi, hamda huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha 2024-yilning III choragi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tuman hokimining o'rinnbosarlari, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman adliya bo'limi, davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga:

-aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to'g'risida xabardor qilishning sifatini tubdan oshirish;

-soha faoliyatiga oid qabul qilinayotgan qonun hujjatlar matnlarini elektron tarzda qabul qilib olish, hamda ularning mazmun va mohiyatini ijrochilar va quyi tuzilmalarga yetkazish hamda aholini xabardor qilish bo'yicha tuman adliya bo'limi bilan doimiy ravishda hamkorlikni olib borish;

-faoliyatni tashkil qilishga printsiplial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish;

-qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etishda, hamda o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda tegishli qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilinishi ta'minlash;

- yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish yuzasidan hamkorlikda ish yuritishni samarali yo‘lga qo‘yish;
- tuman hokimining normativ hususiyatga ega bo‘lgan qarorlarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmasdan qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida qarama-qarshilik va turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash;
- norma ijodkorligi sohasida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha viloyat adliya boshqarmasiga takliflar kiritish;
- qonun hujjatlari matnidan moneliksiz foydalanish imkonini yaratish, qonun normalarining bir xilda qo‘llanilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;
- yuqori turuvchi idoralardan kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarni tizimdagи barcha idoralarga etkazish, shuningdek sohaga oidlarini rasmiy veb saytlarga joylashtirish, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan bosma va elektron ommaviy axborot vositalari hodimlariga tushuntirishga qaratilgan markaziy va hududiy matbuot anjumanlarini o‘tkazish;
- aholi o‘rtasida qonunlarni mohiyati va ahamiyatini tushuntirishni tashkil etish bo‘yicha hududiy targ‘ibot guruhlarini shakllantirish va tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish;
- fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirishda keng jamoatchilik, hususan, tuman xalq deputatlari Kengashi deputatlari ham faol ishtirok etishlarini ta’minlash topshirilsin.

**3. Tuman hokimligi axborot hizmati raxbari, matbuot kotibi (D.Jabborov)ga;**

- Tuman adliya bo‘limi tomonidan norma ijodkorligi, hamda huquqni qo‘llash amalyoti yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni hokimlik rasmiy saytlari, hamda ijtimoiy tarmoqlarda va “Yaypan ovozi” gazetasida keng yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

**4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiya raisi (U.Karimov) zimmasiga yuklansin**

Kengash raisi



YULDASHEV  
SHERZOD  
AKRAMOVICH